



HUMOROUS STORIES OF NASREDDIN AFANDI IN AFGHAN LITERATURE FOLKLORE AND THE ARTISTIC DEPICTION TECHNIQUES IN THEM

Madinabonu Jumaboyeva

*4th-year student of the Dari-English group
"Persian Studies and Afghan Studies" Faculty
Tashkent State Institute of Oriental Studies*

N. Kabirova

*Associate Professor
PhD
"Persian Studies and Afghan Studies" Faculty
Tashkent State Institute of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Afghan folklore, humor, emotional experiences, literature, folklore, proverbs.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article explores one of the most prominent genres of Afghan folklore, the humorous stories of Nasreddin Afandi, specifically focusing on his stories "The Glasses" and "Mulla Nasreddin's Robe." During the research of these humorous stories, two significant differences can be observed. The first difference lies in the contrast between the society living in comfort and the people enduring hardship, as the humor in these stories ridicules the lifestyle of those enjoying luxury while sharply pointing out the problems existing in society.

AFG‘ON ADABIYOTI FOLKLORIDA NASRIDIN AFANDI HAJVIYALARI VA UNDAGI BADIY TASVIR VOSITALARI

Madinabonu Jumaboyeva

*4-kurs dariy-ingliz guruhi talabasi
"Eronshunoslik va afg‘onshunoslik" oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

N. Kabirova

*PhD
"Eronshunoslik va afg‘onshunoslik" oliy maktabi dotsenti*

TDSHU

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Afgʻon folklori, hajviya, ruhiy kechinmalar, adabiyot, folklor, maqollar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada afgʻon folklorining eng koʻzga koʻringan janrlaridan biri boʻlgan Nasriddin Afandining hajviyalari xususan uning Koʻzoynak va Mulla Nasriddinning libosi hajviyasi tadqiq qilinadi. Hajviya namunalari tadqiqi davomida, eng avvalo ikkita katta farqni koʻramiz. Rohat-farogʻatda yashayotgan jamiyat bilan ogʻir ahvolda turmush kechirayotgan xalqning turmush tarzini kulgu ostiga olgan va jamiyatdagi mavjud boʻlgan muammolarni yaqqol koʻrsatgan.

**ЮМОРИСТИЧЕСКИЕ РАССКАЗЫ О НАСРЕДДИНЕ АФАНДИ В АФГАНСКОМ
ФОЛЬКЛОРЕ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ СРЕДСТВА ИХ ИЗОБРАЖЕНИЯ**

Мадинабону Джумабоева

Студент 4-го курса группы дарин-английского языка

Факультет "Персидские и афганистановедческие исследования"

Ташкентский государственный институт востоковедения

Н. Кабирова

PhD, доцент

факультет "Персидские и афганистановедческие исследования"

Ташкентский государственный институт востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Афганский фольклор, юмор, эмоциональные переживания, литература, фольклор, пословицы.

Аннотация: В данной статье рассматриваются одни из самых ярких жанров афганского фольклора — юмористические рассказы о Насреддине Афанди, в частности, его истории "Очки" и "Платье Муллы Насреддина". В ходе исследования этих юмористических произведений можно выделить два крупных различия. Первое различие заключается в контрасте между обществом, живущим в комфорте, и народом, находящимся в тяжелом положении, поскольку юмор в этих историях высмеивает образ жизни тех, кто наслаждается роскошью, в то время как ярко отображаются проблемы, существующие в обществе.

Xalq hajviy asarlari – bu millat ma'naviyati va madaniyatining bir bo'lagi bo'lib, ularda donishmandlik bilan qo'shilib ketgan kulgu, beozor hazil yoki keskin kinoya orqali hayot haqiqatlari ochib beriladi. "Kulgu – ko'ngil gulidir" degan naql bejiz aytilmagan. Folklorda hajviy obrazlar,

latifalar, maqollar, matallar va askiyalar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yengil va tushunarli tarzda yetkazib beradi. Bunday asarlar xalqning og‘ir kunlarida tasalli, yaxshi kunlarida esa zavq bag‘ishlagan. Hajviy janrning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u insonlarni faqat kuldirish bilan cheklanmay, ularni fikrlashga, o‘zgarishga va to‘g‘ri yo‘l topishga undaydi. Zero, “Kulgi – donishmandlarning quroli, johillarning esa o‘yinchog‘i” deyilganidek, xalq og‘zaki ijodidagi hajviya zamirida chuqur hayotiy haqiqatlar yotadi. Shu sababli folklor janrida hajviy asarlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ular xalqning tarixiy tafakkuri, orzu-umidlari va jamiyatga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi.

Hajviya folklor janrining eng ta‘sirchan turlaridan biri bo‘lib, u orqali xalq o‘z dardini kulgi bilan ifodalagan, jamiyatdagi nohaqliklarni o‘ziga xos kinoya bilan ko‘rsatgan. Xalq hajviy latifalari, matallari, maqollari va askiyalari tarix davomida nafaqat odamlarni xushnud qilgan, balki ularga saboq ham bergan. “Haqiqatni hazil bilan aytsang, og‘irlik qilmaydi” degan xalq naqlida ham hajviy janrning maqsadi yaqqol aks etgan.

Hajviy asarlarning kuchi shundaki, ular insonni faqatgina kuldirish uchungina emas, balki chuqur o‘ylashga, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishga undaydi. Hazil, kinoya va istehzo orqali yetkazilgan haqiqat odamlarga bevosita ta‘sir qiladi va ularni tarbiyalaydi. “Kulgi – dono uchun donishmandlik, nodon uchun esa shunchaki o‘yin” degan hikmat ham hajviya san‘atining mohiyatini ochib beradi. Xalq og‘zaki ijodida hajviy obrazlar hayotning haqiqatlarini yumor orqali yetkazuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, xalq askiyalari va latifalari orqali sodda insonlar ham jamiyatdagi katta muammolarni sezgan va o‘z noroziligini nozik yumor orqali ifodalagan. Shuning uchun hajviya har doim faqat kulgi vositasi bo‘lib qolmagan, balki adolat va haqiqatga bo‘lgan intilishning ifodasi sifatida ham namoyon bo‘lgan. U millatning ijtimoiy fikrlash darajasi, o‘tkir zehni va hayotga munosabatini ko‘rsatib beruvchi kuchli quroldir. Turmush tarzi bir-biriga o‘xshash va yaqin bo‘lgan jamiyatlarga mansub xalqlar bir-birining hajviyasini nihoyatda oson tushunganlari holda, oralarida o‘xshashlik va yaqinlik bo‘lmagan o‘lkalarning xalqlari bir-birining hajviyasiga begona bo‘lib qolaveradilar. Lekin hajviyada asl ziddiyat sinflar o‘rtasidagi qarama-qarshilikdan tug‘iladi. Ayni millatlar bo‘lgan boshqa-boshqa sinflarning hajviyasi bir-biridan farq qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida inson tafakkuri va hayotiy tajribasining ifodasi bo‘lib kelgan. Unda haqiqat va ibrat bilan yo‘g‘rilgan hajviy janr alohida o‘rin egallaydi. Bu janrning eng yorqin vakillaridan biri — xalq orasida hikmat va hazilning timsoli sifatida mashhur bo‘lgan Mulla Nasriddin. Uning hajviy latifalari va hikoyalari oddiy kulgu emas, balki chuqur ma‘no va ibratga ega bo‘lib, har bir avlodga o‘z davrining haqiqatlarini hazil bilan tushuntirib bergan.

Mulla Nasriddin hajviyalari kishilarni kuldirish bilan birga, ularni hayotga sinchkovlik bilan qarashga, aql bilan ish yuritishga undaydi. Uning obrazida donishmandlik va oddiy xalqona hazil uyg‘unlashgan. U ba‘zan beozor va sodda, ba‘zan esa o‘tkir fikrli, nohaqlikka qarshi tura oladigan odam sifatida tasvirlanadi. Uning latifalarida kishilarning xudbinligi, ochko‘zligi, johilligi va

nohaqligi hazil orqali fosh etiladi. Mulla Nasriddin haqidagi mashhur hajviy latifalardan biri uning ko‘zoynak haqidagi hikoyasidir. Bu hikoyada u o‘ziga kerakli kitobni o‘qish uchun do‘kondan turli xil ko‘zoynaklarni sinab ko‘radi, biroq hech birini o‘qishga yaramaydigan deb hisoblaydi.

عينک فروش مطلب را فهميد و پرسيد که آیا سواد داری؟

آن مرد جواب داد: نه، سواد ندارم و به همین دلیل عينک میخوام

Do‘kondor undan: Sizning savodingiz bormi? — deb so‘raydi.

U kishi esa javob berdi javob beadi:

— Yo‘q, savodim yo‘q, shuning uchun ham ko‘zoynak sotib olishni hohlayman .

Bu latifa insonlarning ba‘zan o‘z muammolarining ildizini tushunmay, tashqi vositalardan najot izlashini hazil bilan tasvirlaydi. Hayotda bilim va tajriba bo‘lmasa, hatto eng qimmat vositalar ham foyda bermasligi haqida ibrat beradi. Shuningdek, xalq askiyalari va latifalari orqali sodda insonlar ham jamiyatdagi katta muammolarni sezgan va o‘z noroziligini nozik yumor orqali ifodalagan. Shuning uchun hajviya har doim faqat kulgi vositasi bo‘lib qolmagan, balki adolat va haqiqatga bo‘lgan intilishning ifodasi sifatida ham namoyon bo‘lgan. U millatning ijtimoiy fikrlash darajasi, o‘tkir zehni va hayotga munosabatini ko‘rsatib beruvchi kuchli quroldir.

Hajviyaning turli shakllari, uning xalq orasida qanday shakllangani va rivojlanganligi haqida batafsil tahlil qilamiz. Nasriddin Afandining “Ko‘zoynak” hikoyasi oddiy va samimiy kulgi orqali chuqur hayotiy saboqlarni yetkazadigan hikoyalardan biridir. “Ko‘zoynak” hikoyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, buyerda ko‘p obraz ishtirok etmagan. Ammo mana shu ikki kishining suhbatini o‘sha davrdagi insonlar hayotidagi muhim jabhalarni, eng dolzarb muommoni ko‘rsatib bergan.

عينک

شخصی بیسواد بود و خوانده و نوشته نمیتوانست. روزی او متوجه

شد که بعضی مردم در وقت مطالعه به چشم خود عينک میگذارند. آن

به من یک دانه عينک بده

مرد نزد عينک فروشی رفت و گفت: لطفاً

عينک فروش یکی از عينک های خود را به آن مرد داد. آن مرد عينک

را به چشم گذاشت و خطی را گرفت اما از آن خط چیزی فهمیده نتوانست

او فکر کرد که شاید این عينک خراب باشد، آن را به عينک فروش داد و گفت: به نظرم این عينک به چشم من برابر

نیست. خواهش میکنم یک

عينک دیگر بده. عينک فروش گمان کرد که چشم آن مرد ضعیف باشد و

به عينک قویتری ضرورت داشته باشد. از این سبب عينکهای دیگر را

در مقابل آن مرد گذاشت. آن مرد عينکها را یکی بعد از دیگری می

گرفت و به چشم خود میگذاشت ولی هر چه کوشش کرد یک کلمه هم

خوانده نتوانست. عينک فروش مطلب را فهميد و پرسيد که آیا سواد

دارى؟ آن مرد جواب داد: نه، سواد ندارم و به همین دلیل عینک میخواهم. عینک فروش خندید و گفت: گمان نکن که عینک بتواند آدم بسواد را باسواد بسازد. تو به عینک ضرورت نداری، به درس و تعلیم ضرورت داری. عینکها را بگذار، به دکان کتاب فروش برو و کتاب الفبا بخر. آن کتاب را به خانه خود ببر و هر روز با دقت مطالعه کن. در آن صورت میتوانی که بعد از مدتی خواندن و نوشتن را یاد بگیری و باسواد شوی.

Bir savodsiz kishi bor edi va yozishni va o'qishni bilmas edi. Bir kuni u tushundi-ki, bazi odamlar mutoaala vaqti ko'zoynak taqardi. U kishi ko'zoynak sotuvchisining oldiga bordi va dedi: Iltimos menga bitta ko'zoynak bering. Ko'zoynak sotuvchisi ko'zoynaklaridan birini u kishiga berdi. Kishi ko'zoynakni taqdi va xatini oldi, ammo u xatdan hech narsani o'qiy olmadi. U ehtimol bu ko'zoynak singan deb o'yladi va uni ko'zoynak sotuvchisiga qaytarib berdi va dedi: Nazarimda bu ko'zoynak menga mos kelmadi. Menga boshqa ko'zoynak berishingizni hohlayman. Ko'zoynak sotuvchisi bu kishining ko'zlari zaif deb o'yladi va kuchliroq ko'zoynak berdi. U kishi ko'zoynakni yana bir bor oldi va ko'ziga taqdi ammo har qancha harakat qilmasin bir dona jumlani ham o'qiy olmadi. Ko'zoynak sotuvchisi tushundi va so'radi: Savodingiz bormi? U kishi javob berdi: Savodim yo'q. Ko'zoynak sotuvchisi kuldi va dedi: Ko'zoynak besavod kishini savodli qilmaydi. Sizga ko'zoynakni keragi yo'q, siz ta'limga muhtoj. Ko'zoynakni bering va kitob do'koniga borib alifbo kitobini xarid qiling. U kitobni uyingizga olib boring va har kuni diqqat bilan mutoaala qiling. Biroz muddatdan so'ng, yozishni va o'qishni o'rganasiz va savodli bo'lasiz".

O'zi savodsiz bo'la turib, ko'zoynak insonlarni savodli qila oladi degan tushunchaga ergashib, ko'zoynak sotuvchisining yoniga kelgan va ko'zoynak bilan ham xatdan hech bir jumlani o'qiy olmagan kishi tasvirlangan. Bu hikoyada Nasriddin Afandi juda oddiy, ammo o'ta mazmunli xabar beradi: agar inson o'zi bilimga ega bo'lishga intilmasa, tashqi vositalar va texnologiyalar bilim va o'zlashtirish uchun yetarli emas. Ko'zoynakni taqqan holda ham, u bilimga ega bo'la olmaydi, chunki asosiy bilim va tushuncha insonning o'zidan keladi. "Ko'zoynak insonni savodli qila oladi" degan tushuncha zamirida tashqi yordam vositalarining insonni bilimli va savodli qilishda o'zi yetarli deb hisoblash noto'g'ri ekanini ifodalaydi. Ko'zoynak bu yerda ramziy ma'noda foydalanilgan – u bilimni o'zlashtirish, mantiq va savodlilikka ega bo'lish uchun kerakli vosita kabi ko'rsatilgan. Lekin aslida, faqat tashqi vositalar, masalan, kitob, ko'zoynak yoki boshqa o'quv qurollari, insonning bilim va ma'lumot olishiga yordam berishi mumkin, ammo haqiqiy savodlilik va tushuncha insonning o'zining bilim olishga bo'lgan intilishi va ichki mehnatidan kelib chiqadi. Bu tushuncha, Nasriddin Afandi hikoyasida aks ettirilganidek, insonning o'z aqli va bilimsizlikka qarshi intilishi orqali o'qish va bilim olish zarurligini anglatadi.

Xo‘ja Nasriddinning latifalari hoh og‘zaki shaklda bo‘lsin, hoh yozma uni yaratgan jamiyat ahvolini aks ettiruvchi, o‘sha davrni tasvirlovchi eng yahshi asarlardandir . Yana bir mashhur latifalaridan biri bo‘lgan “Nasriddin afandining libosi “hajviyasi ham jamiyatda ro‘y bergan dolzarb muommalarni hajviy usulda ko‘rsatishga harakat qildi.

لباس مال نصرالدين

روزی مال نصرالدين به یک مهمانی آمد. او لباس ساده یی به تن داشت و از این سبب او را نگذاشتند به خانه داخل شود. مال نصرالدين مجبور شد به خانه خود برگردد و به جای لباس ساده لباس بهتری بپوشد. وقتی که دوباره به آن مهمانی آمد او را خوب استقبال کردند و دعوت نمودند تا بالای دسترخوان بنشیند. وقتی که نان کشیدند تمام مهمانان با اشتهای زیاد به نان خوردن شروع کردند. اما مال آستین خود را به نان، نزدیک کرد و گفت: بخور! همه تعجب کردند و صاحب خانه پرسید: مال چرا به لباس خود میگویي که نان بخورد؟ مال نصرالدين جواب داد: شما به خود انسان احترام نداريد بلکه به لباسش احترام داريد. به این سبب نان خوردن هم وظیفه لباس است.

Bir kuni Nasriddin Afandi bir mehmondorchilikka bordi. U oddiy kiyim kiygan edi, shu sababdan uni uyga kiritishmadi. Nasriddin Afandi uyiga qaytishga majbur bo‘ldi va oddiy kiyim o‘rniga yaxshiroq kiyim kiyib keldi. U qayta

mehmondorchilikka kelganida, uni yaxshi kutib olishdi va dasturxon yoniga taklif qilishdi. Ovqat tortilganida, barcha mehmonlar ishtiyok bilan ovqat yeyishga kirishdi. Lekin Nasriddin Afandi o‘zining yengini ovqatga yaqinlashtirib: “Ye!” dedi. Hamma hayron qoldi va mezbon so‘radi: “Afandi, nega kiyimingizga ovqat yeyishni buyuryapsiz?” Nasriddin Afandi javob berdi: “Siz odamning o‘ziga emas, uning kiyimiga hurmat qilasiz. Shu sababli ovqat yeyish ham kiyimning vazifasi.

Hikoyada boy va yaxshi kiyingan insonlarga hurmat, oddiy kiyinganlarga esa e‘tiborsizlik qilish jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishning tanqididir. Afandi oddiy kiyimda qabul qilinmaydi, lekin yaxshi kiyim kiyib kelganda, unga darhol e‘tibor berishadi. Bu vaziyat insonlarning ijtimoiy mavqeiga qarab tengsiz munosabatda bo‘lishning noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Ko‘rinib turibdiki, ayrim odamlar insonning ichki fazilatlarini, bilim va insoniy qadr-qimmatini emas, balki uning tashqi ko‘rinishini qadrlaydi. Bu hajviya orqali Nasriddin Afandi jamiyatdagi notog‘ri qarashlar, adolatsiz baholash va odamlarni tashqi ko‘rinishiga qarab kamsitish kabi muommollarni hazilomuz tarzda yoritib, o‘quvchiga chuqur saboq beradi. Jamiyatda ko‘pincha insonlar tashqi ko‘rinishi, kiyim kechagi orqali baholanadi. Nasriddin Afandini oddiy kiyim bilan uyga kirgizmaslik orqali bu muommo kulgili shaklda yoritilgan. Bu voqea insonni qadr-qimmatini uningbliyimida emas, balki ichki dunyosida ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa jamiyatda ichki qadriyatlarining unutilib, moddiy

narsalarga ortiqcha e'tibor berilishidan dalolat beradi. Hikoyada Afandining o'ziga emas, uning kiyimiga hurmat ko'rsatilishi tanqid qilinadi. Bu holat odamlarga hurmat ko'rsatishda adolatsizlik, faqat moddiy holatga qarab hurmat qilishning noto'g'ri ekanligini anglatadi. Insonlarni tashqi ko'rinishiga qarab baholash va ularni kamsitish jamiyatda keng tarqalgan stereotiplardan biridir. Afandining libosi haqida hikoya bu stereotiplarni tanqid qiladi va odamlarni o'z ichki xususiyatlari bilan baholash kerakligini eslatadi. U hajviya orqali Nasriddin Afandi jamiyatdagi noto'g'ri qarashlar, adolatsiz baholash va odamlarni tashqi ko'rinishiga qarab kamsitish kabi muammolarni hazilomuz tarzda yoritib, o'quvchiga chuqur saboq beradi. Hikoyada kiyim insonning qadr-qimmatini o'rnida ko'riladi, ya'ni tashqi narsa ichki fazilatlarining o'rnini bosayotgandek. Afandining hikoyasi insonning asl qiymatini tushunmay, faqat ko'rinishga e'tibor berishning noto'g'ri ekanini ko'rsatadi. Afandining oddiy kiyimda kiritilmay, boyroq kiyimda qabul qilinishi odamlarning ikkiyuzlamachiligini ochib beradi. Hikoyada kishilar Mulla Nasriddinni oddiy kiyimda mensimaydi, ammo hashamatli chopon kiyganida unga hurmat bilan qaray boshlaydi. Bu hayotiy haqiqat: ko'p hollarda insonning ilmi, donishmandligi yoki axloqiy qadriyatlari emas, balki uning moddiy holati yoki tashqi ko'rinishi asosida baholanadi. Mulla Nasriddin bu nohaqlikni kulgi va kinoya bilan ko'rsatib, insonlarni o'ylashga undaydi. Uning taomni choponining yengiga botirishi hayotiy kinoyadir: "Agar odam emas, uning kiyimi hurmat qilinsa, demak, hurmat choponga tegishli" degan g'oya ilgari suriladi. Ular insonning asl mohiyatiga qarash o'rniga, u bilan qanday manfaat olishlariga qarab munosabat o'zgartiradi. Odamlar ruhiy boyluk yoki ichki fazilatlarini qadrlash o'rniga, moddiy narsalarga intilish bilan o'zlarini cheklab qo'yishadi. Ushbu illatlar jamiyatda keng tarqalgan bo'lib, Nasriddin Afandining hikoyasi ularni ochib berish va ularning oqibatlarini kulgili shaklda tushuntirishga xizmat qiladi. Hikoya odamlarni chinakam qadriyatlarni anglashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aziz Nesin. Xo'ja Nasriddinning ikki hayoti. Maqola 2020.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent 2005.
3. Jahon adabiyoti. Ilmiy jurnali. Toshkent 1992.
4. Mannonov A. Afg'oniston xalqlari folklori va mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent 2001.
5. Kabirova N. Afg'oniston xalqlari folklorining hikoyachilikdagi o'rni // XXI asr: fan va ta'lim masalalari // Ilmiy jurnal. Toshkent 2021.
6. داستان کابل ۱۳۳۴. های ملا ناصر دن
7. <https://qomus.info/encyclopedia/kulgu-uz/>
8. www.ziyouz.com kutubxonasi
9. <http://www.habib.ir/goonagoon/molla.htm>